O'ZBEK TILIDAGI O'ZLASHGAN TIBBIY ATAMALARNING TARKIBI VA TUZILISHI

Qahhorova Shahnoza To'raqulovna
NAVDU

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi tibbiy atamalarning qaysi tillardan kirib kelganligi shuningdek, ularning tuzulishi va shakli, o'zbek tilida berilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tibbiy terminologiya, o'zlashma qatlam, emprunt, kalkalash, eponimiya.

Tilning lug'at tarkibi tilning eng harakatchan, o'zgaruvchi va rivojlanuvchi qismi hisoblanib, u olamda, ilm-fanda, texnologiyalarda bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklar shuningdek tilga aloqador bo'lmagan jarayonlarda ham bilvosita ishtiroki bilan yangi-yangi so'zlar va ma'nolarni qamrab oladi. Bu lug'at tarkibi uchun turli yo'llar bilan yangi ma'no va so'zlar hosil qilishi, uning asosiy o'ziga xosligi hisoblanadi. Yangi hodisa va nomlarning atalishi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi hisoblanadi. Bizga ma'lumki, yangi atamalarning hosil bo'lishi leksik qatlam boyishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ularni o'rganish esa til qurilishidagi murakkabliklar, ichki va tashqi omillarning qo'shilib, turli darajadagi til strukturalariga aloqasini o'rganadi. Taxminlarga ko'ra har yili, dunyoda 1000 dan ortiq yangi tibbiy atamalar hosil bo'ladi.

Masalan o'zbek tili lug'at boyligida mavjud bo'lgan tibbiy atamalarining ham katta qismi lotin tilidan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Bizga ma'lumki tibbiyot terminlari asosan lotin va grek tillaridan kirib kelgan va barcha tillardagi meditsina terminlarining o'rtacha 80 foizidan ortig'ini ushbu atamalar tashkil etadi. Bundan tashqari yevropa tillaridan ko'plab so'zlar, so'z biriklari kirib kelgan va bu jarayonlar lotin tili o'lik tilga aylanib uning madaniy yoki siyosiy hayotda katta rol o'ynamaganligi sababli, endi yangi tibbiy terminlar, yangi tibbiy tushunchalarng nomlanishi boshqa yevropa tillarida xususan dastlab fransuz, keyinchalik esa ingliz tilida yaratila boshladi. Masalan bugungi kunda o'zbek tilida ham tilning ajralmas qismiga aylanib ketgan anchagina tibbiy atalamalar fransuz tilidan ruscha orqali o'zbek tiliga kirib kelgan. Bunday so'zlar sirasiga akusherlik ishi, draje,tampon, pasterizatsiya, bandaj, pipetka, kabi yana ko'plab so'zlarni kiritish mumkin:

Akusherlik – accouchement (accoucher) fr –tug'moq, farzandni dunyoga keltirmoq;

Draje – dragée fr – shirinlik, shirin xapdori;

Tampon tampon(tampion fr ancien) – qon to'xtatuvchi tiqin;

Pasterizatsiya – (pasteurisation ou débactérisation) fr – bakteriyalardan tozalash;

Bandaj – bandage fr bander – o'ramoq, bog'lamoq;

Pipetka – pipette fr- kichik quvurcha.

Bu kabi ro'yxatni yana kengaytirishimiz mumkin, ammo tilning lug'at tarkibi boyishining boshqa usullari ham mavjud.

Bunday usullarga birinchi ko'rganimizday emprunt, to'liq o'zlashma qatlam, so'z, tushuncha, uning yozilishi va talaffuzi, paydo bo'lgan tilda qay holatda bo'lsa shu tarzda qabul qilinadi. Masalan lotin tilidadan olingan osteologiyaga oid so'zlar barchasi so'zlarni shunday so'zlar qatoriga kiritamiz:

maxilla, mandibula, clavicula, tibia, fibula, metatarsus va boshqalar.

Ko’p hollarda tibbiy terminlarni kalkalab tarjima qilish holatlari masalan antitana (judayam xavfli bo’lmagan virus yoki bakteriya qonga chiqaradigan zaharga qarshi kurashish uchun tana ishlab chiqaradigan modda), fransuzcha anticorps (so’zma-so’z “qarshi tana”) so’zidan rus tiliga kalkalanib tarjima qilingan антитела ham o’zbekchaga antitana tarzida kalkalab tarjima qilib olingan.

Bundan tashqari tilimizda tibbiy terminlarni to’gridan to’g’ri olingan izohlovchi tarjimalari ham qilingan, bu tarjimalar asosan 2 yoki undan ortiq so’z birikmalari yordamida amalga oshirilgan, masalan: insult- miyaga qon quyilishi, pnevmoniya – o’pka yallig’lanishi, bronxit – bronxlar shilliq pardasining yallig’lanishi va boshqa shunda tarjimalar singari juda ko’p holatlarda so’z birikmalari bilan izohlab tarjima qilingan. O’zbek tilidagi bunday ko’p komponentli terminlar paydo qilish an’anasi ruscha terminlarning o’zbekchalashtirish natijasida yuzaga kelganligi takidlanadi. Ammo shunday bo’lsada ,har qanday tilga xos xususiyat bu biror tushunarsiz atamani izohlab tushuntirish holati o’zbek tilida ham mavjud.

Tibbiyotga oid so’zlarning yana bir paydo qilish usuli bu yangi aniqlangan kasallik, yangi paydo bo’lgan kasallik yoki davolash, tashxis qo’yish bilan bog’liq yangi jarayonlarga nom berishda atoqli otlar ya’ni o’sha kasalliklarni aniqlashda birinchilardan bo’lgan insonning nomini berish, kasallik tarqalgan joyni nomini berish kabi jarayonlar bilan ham yangi tibbiy atamalar paydo bo’lmoqda. Bunday atamalar tilshunoslikda eponimlar deyiladi va bu tibbiy eponimlar bugungi kunda o’zbek tilida ham keng qo’llaniladi, masalan: Altsgeymer kasalligi, Parkinson kasalligi, Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, Daun sindromi, Ebola virusi, Uzoq sharq isitmasi va boshqalar.

O’zbek tilida turli tillardan kirib kelgan tibbiy atamlar mavjud va ular nafaqat lotin tili balki boshqa yevropa tillaridan ham kirib kelgan, ular so’z, so’z birikmasi, eponimlar shaklida tilimizda keng omma tomonidan foydalaniladi.

Adabiyotlar

1.И. Кучешева Анализ имен собственных для обозначения медицинских терминов (на материале английского и немецкого языков) Omsk 2018

2.U. Esanov O'zbek tilidagi birlashgan tibbiy atamalarning bazi leksik ko’rinishlari TMA Conference | 2023

3.Нормуродова С.М.Тиббиӣ атамаларни шакллантириш усуллари. Science and education 2022/Volume 3 Issue 11